SHUKUR XOLMIRZAYEV IJODIDA OILAVIY QADRIYATLAR VA INSONIY MUNOSABATLARNING LINGVOMADANIY IFODASI

Mashxura Xusanova Axmadjonovna
FarDU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya
Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev asarlarida oilaviy qadriyatlar, qarindoshlik munosabatlari va insoniy aloqalarning badiiy-lisoniy in’ikosi tadqiq etiladi. Adib asarlaridagi "oila", "ota", "farzand" konseptlarining milliy mentalitet bilan bog‘liqligi, insoniy munosabatlar dramatsizmi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Shukur Xolmirzayev, lingvokulturologiya, oilaviy qadriyatlar, konsept, milliy mentalitet, badiiy mahorat, insoniy munosabatlar.*

KIRISH

Lingvokulturologiya til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni o‘rganuvchi fan hisoblanadi. Har bir xalqning milliy qadriyatlari, urf-odatlari, dunyoqarashi va ma’naviyati avvalo uning tilida aks etadi. Ayniqsa, oilaviy munosabatlar bilan bog‘liq nutq birliklari xalqning madaniy qarashlarini yorqin namoyon qiladi. O‘zbek xalqining oilaga bo‘lgan munosabati, kattaga hurmat, kichikka izzat, mehr-oqibat va andisha kabi tushunchalar til orqali namoyon bo‘ladi. Oilaviy munosabatlarda ishlatiladigan murojaatlar, maqollar, iboralar, duo va tilaklar lingvokulturologik birlik sifatida katta ahamiyatga ega. Ular nafaqat muloqot vositasi, balki milliy mentalitetni ifodalovchi madaniy belgilar hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Sh.Xolmirzayev qalamiga mansub deyarli barcha asarlarda oilaviy munosabatlar markaziy o‘rinda turadi. Adib oilani milliy qadriyatlarning “genetik kodi” sifatida ko‘rsata oladi. Oilaviy munosabatlarda milliy qadriyatlarning ustunligi va ahamiyatli ekanligini aniq ochib beradi. Oila nafaqat ijtimoiy birlik, balki inson kamolotining asosiy omilidir. Adib asarlarida oila muaddas tushuncha, tarbiya maskani, mehr va sadoqat manbayi, insoniylikni shakllantiruvchi muhit, himoya va panoh sifatida talqin etiladi. Yozuvchi asar qahramonlarini ko‘p hollarda oilaviy muhit orqali shakllantiradi. Ularning xarakter-xususiyati, dunyoqarashi, hayotga bo‘lgan munosabatlari aynan oilaviy muhit bilan chambarchas holda rivojlanadi. Uning qahramonlari orasida ota mehriga tashna farzandlar (“O‘n sakkizga kirmagan kim bor” qissasi Jamshid obrazi)[7], farzand kamolini orzu qilgan ota-onalar (“O‘n sakkizga kirmagan kim bor” qissasi Zaynabxon) [8] , oila atalmish muqaddas rishtani saqlay olgan er va ayollar (“Farzand”hikoyasi Mengboy obrazi)[9], avlodlar o‘rtasidagi tushunmovchiliklar (“Oy yorug‘ida” hikoyasi) [10] kabi holatlar keng yoritiladi. Yozuvchi bu munosabatlarni ideallashtirib emas, balki real hayotiy murakkabliklar bilan tasvirlaydi. Natijada

[7] Xolmirzayev Sh. O’n sakkizga kirmagan kim bor. Toshkent:Yangi asr avlodi. 2020.
[8] Xolmirzayev Sh. O’n sakkizga kirmagan kim bor. Toshkent:Yangi asr avlodi. 2020.
[9] Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar. Toshkent, Sharq.2020
[10] Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar. Toshkent, Sharq.2020

obrazlar hayotiy va ishonarli chiqadi, milliy belgilari sof ko‘rinadi. Yozuvchi til birliklari orqali oila konseptini jonlantirar ekan, “ota uy”, “oilaning ustuni”, “xonadon”, “farzandi arjumand”, “yetti pusht”, “Ota rozi – Xudo rozi”, “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” kabi leksik birliklar oddiy nominativ ma’nodan tashqari milliy-madaniy yuklamaga ega sanalib, o‘zbek xalqining oila borasidagi tasavvurlarini akslantiradi. Ota obrazi va iyerarxiyasiga nasar tashlasak, yozuvchi asarlarida ota oilaning asosiy ustuni, mutlaq boshqaruvchi hokim va shu bilan birga oilaning barcha a’zolariga, hayot tarziga javobgar, mas’uliyatli shaxs hisoblanadi. Kerakli qarorning oxirgi nuqtasi ham u tomonidan qo‘yiladi. Masalan, "Tabassum" hikoyasida otaning so‘zi va irodasi oila a’zolari uchun qonun darajasiga ko‘tariladi [6, 334]. Bu esa o‘zbek oilalariga xos an’anaviy patriarxal tizimning lingvomadaniy in’ikosi sifatida baholanadi.

Ona obrazi mehr timsoli sifatida ko‘rsatiladi. Yozuvchi asarlarida ona siymosi ko‘pincha jimlik, sabr va oilani birlashtiruvchi quvvat sifatida namoyon bo‘ladi. Uning bor dardi, alamlari, orzu-istaklari duo, pichiriq va ichki dard orqali aks etadi. Masalan,

- Xo‘p, xo‘p, otajon, - dedi kampir va gangib qo‘lini fotihaga ochdi. – Ilohim, eson-omon borib kel. Yo‘ling oq bo‘lsin. [6, 424]

Xolmirzayev ijodida oilaviy qadriyatlarni ifodalashda frazeologizmlar keng qo‘llanadi. Ular lingvokulturologik jihatdan xalq dunyoqarashini ifodalaydi. Masalan, onaning farzandiga mushtoq bo‘lishi “yuragi ezildi” iborasi, biror xavotirining arishi “ko‘ngli joyiga tushdi” iborasi, farzandning oilaga nomunosib ish qilishi “yuzini yerga qaratdi” iborasi orqali bayon etiladi. Bu iboralar psixologik holatni obrazli ifodalashga xizmat qilibgina qolmay, milliy tafakkur tarzini ham ko‘rsatadi. Masalan, “yuzini yerga qaratdi” iborasi nafaqat uyatni, balki ijtimoiy bosimni ham anglatadi. Chunki bu orqali butun oila sha’ni nazarda tutiladi.

O‘zbek oilalarida nutq odobi juda muhim sanaladi. Oila a’zolari bir-biriga murojaat qilishda hurmat va ehtiromni ifodalovchi so‘zlardan foydalanadi. Masalan: *otajon, onajon, buvijon, akajon, opajon kabi.* Bu murojaatlardagi “-jon” qo‘shimchasi mehr va yaqinlikni ifodalaydi. Bu esa o‘zbek xalqining oilaviy munosabatlarda samimiyat va iliqlikka katta e’tibor berishini ko‘rsatadi. Ba’zi xalqlarda ota-onaga oddiy ism bilan murojaat qilish odatiy hol bo‘lsa, o‘zbek madaniyatida bu hurmatsizlik sifatida baholanadi. Demak, til birliklari orqali milliy madaniyat va axloqiy me’yorlar namoyon bo‘ladi. “Oila - qo‘rg‘on”, “Ota rozi - Xudo rozi”, “Onangni quyosh bil”, “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” kabi maqollarda oilaviy munosabatlar keng aks etadi. Bu maqollar orqali oilaning jamiyatdagi o‘rni, ota-onaga hurmat va tarbiyaning ahamiyati ifodalanadi. Ayniqsa, “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” maqoli bolaning tarbiyasi oilaga bog‘liqligini bildiradi. Bu xalqning pedagogik qarashlarini ham aks ettiradi. Masalan, *Odil akaning nutqini qisqartirib aytish mumkinki, oqibat, gapni – to‘ybola Alisherga optushib bog‘lab: – Abdurahmon aka bobongdek, otang Matlabjondek bo‘l! O‘zbekda bir maqol bor:* ***“Bolangdan hurmat istasang, otangni hurmat qil”,*** *deydilar. Buning ma’nosi benihoya chuqurdir... Otang Matlabjonning o‘z padari buzrukvori Abdurahmon polvon uchun qilgan farzandlik burchi – sen uchun saboq bo‘lsin, – degandan so‘ng Matlabning yor-do‘stlarini birma-bir tilga olib: – Bular shu tuproqda tug‘ilib o‘sgan mard, tanti, so‘zi bilan ishi bir o‘g‘lonlardir! Bularning deyarli hammasini vatanparvar, shu yurt uchun hech narsasini ayamaydigan, uning or-nomusi*

uchun oxirigacha kurashadigan yigitlardirki, bular ham sen uchun, masalan, ibrat namunasi bo‘lib qolishiga ishonaman! Axir, ***qush inida ko‘rganini qiladi****, deydi-ku xalqimiz...* [6, 547]

Frazeologik birliklarda ham oilaviy qadriyatlar ko‘rinadi. “Bir yostiqqa bosh qo‘ymoq” turmush qurmoq, “Ko‘nglini ko‘tarmoq” mehr ko‘rsatmoq, “Ko‘ngliga ozor bermoq” ranjitmoq kabi ma’nolarni ifodalovchi iboralar oiladagi ruhiy yaqinlik va hissiy munosabatlarni ifodalaydi.

Lingvokulturologiyada nutq odobi milliy madaniyatning muhim qismi sifatida qaraladi. O‘zbek oilalarida kattalarning gapini bo‘lmaslik, salomlashishga alohida e’tibor berish, duo olish, muloyim so‘zlash kabi holatlar milliy mentalitetni ifodalaydi. Masalan, kelinning qaynota yoki qaynonaga baland ovozda gapirmasligi, ayrim hollarda ismni tilga olmasligi sharqona hurmat belgisi hisoblanadi. Bu holat ham til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Oilaviy marosimlarda lingvokulturologik birliklardan to‘y, beshik to‘yi, sunnat to‘yi kabi oilaviy marosimlarda ishlatiladigan til birliklari ham milliy madaniyatni ifodalaydi. Masalan: *“Baxtli bo‘ling”, “Ikki yosh qo‘sha qarisin”, “Qo‘chqorday o‘g‘il bersin”, “Uyingizdan qut-baraka arimasin”* kabi tilaklar xalqning oilaga, nasl davomiyligiga va farovonlikka bo‘lgan qarashlarini aks ettiradi. Shuningdek, duo va olqishlar o‘zbek oilaviy madaniyatining muhim qismi hisoblanadi. Ota-onaning duosi eng katta ma’naviy boylik sifatida qadrlanadi.

Oilaviy munosabatlarda lingvokulturologiyaning aks etishi til va madaniyatning bir-biridan ajralmas ekanini ko‘rsatadi. O‘zbek xalqining oilaga oid qarashlari murojaat shakllari, maqollar, iboralar, nutq odobi va marosimlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Til orqali xalqning ma’naviy dunyosi, milliy qadriyatlari va mentaliteti avloddan avlodga o‘tadi. Shu sababli oilaviy munosabatlarni lingvokulturologik jihatdan o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki milliy madaniyatni anglashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Lingvokulturologik tahlil shuni ko‘rsatadiki, Shukur Xolmirzayev asarlarida til birliklari milliy madaniyat bilan uzviy bog‘langan, oila konsepti markaziy lingvomadaniy birlik sifatida namoyon bo‘ladi, murojaat shakllari va frazeologizmlar milliy mentalitetni ochib beradi, leksik birliklar orqali axloqiy qadriyatlar ifodalanadi. Natijada yozuvchi ijodi nafaqat badiiy, balki lingvomadaniy manba sifatida ham katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аскольдов С. А. Концепт и слово / Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. – Москва: Академия, 1997.
2. Телия Б. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекти. – М.: Языки русский культуры, 1996.
4. Маслова Б.А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов висших учебних заведений. – М.: Академия, 2001.
5. Xolmirayev Sh. O‘n sakkizga kirmagan kim bor. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
6. Xolmirayev Sh. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2020.